

## МЕХМЕТ ЙИЛДИЗНИНГ "IZLASH" КИТОБИДА ИЛГАРИ SURILGAN G'ОЯ VA QARASHLAR

*Abduvosiyeva Moxinur Xamidullo qizi*

*Andijon davlat chet tillari instituti 1-bosqich talabasi*

*Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mehmet Yildizning "Izlash" asari haqida so‘z yuritiladi. Hikoya muhiti undan ilgari surilgan g‘oya va qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati yoritib beriladi. Asar qahramonlarining ijobiy va salbiy xususiyatlari va bugungi avlodga namuna bo‘ladigan jihatlarga tarbiyaviy holatlarga alohida to‘xtab o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Giyohvand moddalar, tor va qorong‘u ko‘chalar, iymonsizlik, o‘g‘irlik,iymon, muhabbat, do‘stlik, kitob, mehr, halollik

**Abstract:** This article is about Mehmet Yildiz's work "The Search". The atmosphere of the story and the importance of the ideas and views put forward from it today will be highlighted. The positive and negative characteristics of the heroes of the work and the aspects that serve as an example for today's generation will be highlighted.

**Keywords:** Drugs, narrow and dark streets, infidelity, theft, faith, love, friendship, book, love, honesty

**Аннотация:** Данная статья посвящена произведению Мехмета Йылдыза «Поиски». Сегодня будет подчеркнута атмосфера рассказа и важность высказанных в нем идей и взглядов. Будут выделены положительные и отрицательные характеристики героев произведения и те аспекты, которые служат примером для сегодняшнего поколения.

**Ключевые слова:** Наркотики, узкие и темные улицы, неверность, воровство, вера, любовь, дружба, книга, любовь, честность

**Kirish:** Mehmet Yildiz, 1987 yilning 1-yanvarida Turkiyaning Izmir shahrida dunyoga keldi. 2012 yil da Ege universiteti matematik bo‘limi tugatdi. Mug‘la universitetlarida magistraturani bitirdi. 2013-2014 yillar orasida Dost TV-da dastur boshlovchisi va Islomiy mavzuda suhbatlari namoyish etilgan Mehmet Yildizning ayni paytda Moral FM-da suhbatlari e’lon qilinyapti.

**Asosiy qism:** Hayotining bahorida so‘ligan navnihol... Maishiy zo‘ravonlik, qotillik, ko‘cha hayoti, giyohvandlik, yetimlik, afsus-nadomat va ruhiy azoblarni boshdan kechirgan yoshgina yigitcha. Bu yoshida buncha yukni ko‘tarish unga og‘irlik qildi. Ranj-alamga to‘la hayotiga ma’no berishni istadi, tubi yo‘q quduqda kelajagi uchun bir tutam umid qidirdi... Va yo‘lini yo‘qotganlarga yo‘lboshchilik qilishni diliga tukkan yosh o‘qituvchi bilan

uchrashib qoldi. Bu uchrashuv aslo tasodif emasdi... Mehmet Yildizning real voqealarga asoslanib yozilgan ushbu asarida tolei kulmagan yigitchaning hayoti qanchalar o‘zgarib ketganiga guvoh bo‘lasiz. “Hech kim hayotimizga bekordan-bekor kirib kelmagan. Ular biz uchun yo imtihon, yoki armug‘on. Yoshligidan qiyinchiliklarga dosh berolmay, yengil hayot yo’lini tanlagan Mehmet...”

Bu asarni o‘qish mobaynida Mehmet Yildizning real voqealarga asoslanib yozilgan mazkur asarida toleyi kulmagan yigitchaning hayoti qanchalar o‘zgarib ketganining guvohiga aylanasisiz. “Hech kim hayotimizga bekordan-bekor kirib kelmagan. Ular biz uchun yo imtixon, yo armug‘ondir” - so‘zlarining yaqqol misoli ushbu asarda namoyon bo‘ladi. Har qanday asar avvalida kitobxon hayoliga keladigan ilk hodisa asarning nomi hisoblanadi. “Izlash” asarining nomi meni o‘ziga qiziqtirib qo‘ydi. Ayniqsa, “Seni izlayotib jonim uzildi...” jumlesi.

Asarda meni o‘ziga mixlab qo‘ygan yana bir jumla bor: “Agar inson oxiratini o‘ylaydigan ilmga ega bo‘lmasa, hoy-u havaslarga beriladi, aldanadi va noto‘g‘ri qarorlari bilan hayotini barbod qilishi mumkin”. Qahramonimiz Mehmetning hayoti bunga yaqqol misol bo‘la oladi! Mehmetning hayotiga Fotima ustoz kirib keladi va Mehmetning o‘zligini topishiga ko‘maklashadi, unga Robbisini tanitadi.

Asar bugungi kunda juda ham dolzarb bo‘lgan mavzularni o‘z ichiga olgan deb bemalol aytta olaman. Bu asarni o‘qir ekanman, ko‘zim yoshga to‘laverdi. Bir yosh yigitning hayoti birdaniga tubdan o‘zgardi.

“Bu kitobni O‘sib kelayotgan har bir yosh avlod ilm olishlikning qanchalik zarurligini bilishi, qiyinchiliklar kelsa, sabr-bardosh bilan yengishi, qismat Allohdan ekanini va duo ila hayotini go‘zallashtirishi kerakligi, har xil yomon illatlar domiga tushib qolmasliklari uchun o‘qishi kerak”. Asardagi voqeiliklar hayotimizda uchrab turayotgan voqeiliklarga to‘la mos keladi.

Asarda kelgan Hazrat Mavlononing: “Achchiq suv ham, shirini ham suv. Aslo ko‘rinishiga aldanma. Chunki tashqaridan qaraganda, hamma ham insonga o‘xshaydi” jumlesi ancha kuchli ta’sir qildi. Haqiqatan ham, mazkur jumla atrofimizda “Insonsifat mahluqlar” ko‘paygani va ularning nayranglariga uchib, yosh hayotimizni xazon qilmasligimiz kerakligini bot-bot eslatib turgandek go‘yo.

**Xulosa:** Asar nosog‘lom oilada katta bo‘lgan, otasi onasini o‘ldirib qo‘yganidan keyin ko‘chaga chiqib ketgan, mafiyaga qo‘shilgan, o‘g‘irlik qilgan, giyohvand modda sotib, keyin o‘zi ham giyohvand bo‘lib qolgan, yetimxonaga tushgan, u yerda bir o‘qituvchi ta’sirida dinga qiziqib, iymoni kuchayib, oxirida o‘lgan bola haqida. Maqsad dinning go‘zal tomonlarini ko‘rsatish, bir insonning iymonga kirishini aytish

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Mehmet Yildiz “Izlash” 2024-yilgi nashri

Net tarmoqlari: <https://kitobman.uz>